TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ORQALI INSON KAPITALINI MUSTAHKAMLASH	688
Oripova Madinabonu Mansur qizi	
REKLAMADA RANG VA PSIXOLOGIYA	691
Muxtorxonova Ozoda Axror qizi	
GO'SHT VA SUT ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANITIRISH YO'NALISHLARI	694
Qurbonov Alisher Boboqulovich, Abdullaev Jasur Jabborovich	
CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR INVENTORY AUDIT AND CONTROL	699
Nigora Alimkhanova	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	703
Камалова Малика Низамовна, Очилов Акрам Одилович	
TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI BAHOLASHDA TAHLILY USULLARNING AHAMIYATI	708
Alimxanova Nigora Alimxanovna	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И УСЛОВИЯ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И ИХ ТРАНСФОРМАЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	712
Хусайнов Равшан Рахимович	



TRANSFORMATION OF ORGANIZATIONAL CULTURE IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION: MODERN APPROACHES AND CHALLENGES.....	717
Yuldasheva Makhliyo Bakhtiyar qizi	
QISHLOQ HUDUDLARI IJTIMOIIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	723
M.Yu.Alimova, Rustamova Gavhar Baxtiyarovna	
HR-MENEJMENT SIFATINING TEKSTIL KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGI VA IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI.....	726
Yormatov Ilmidin Toshmatovich, Ochilov Akram Odilovich	
TURIZM SOHASIDA GLOBAL IMKONIYATLAR VA RAQAMLI HAMKORLIK.....	731
Salomov Farrux Komil o‘g‘li	
AUDIT NATIJALARINING SOLIQ TEKSHIRUVLARIGA TA’SIRI	736
Bakirov Norbek Norquchqor o‘g‘li	
OPTIMIZING GRADUATE ENROLLMENT MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	741
Tilakov Sherzod Akbarovich	
FACTORS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF PRIVATE BUSINESS ENTITIES AND PRINCIPLES ENSURING THEIR SUSTAINABLE OPERATION.....	745
Ochilov Akram Odilovich, Alimova Munisa Yulchiyevna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOAT AGLOMERATSIYA KLASSTERINI STRATEGIK REJALASHTIRISH VA OPTIMAL JOYLASHTIRISH	750
Ochilov Akram Odilovich, Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
ZAMONAVIY BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDA MEHNATGA LAYOQATLI YOSHDAN KATTA AHOLIGA XIZMAT KO‘RSATISHNI RIVOJLANTIRISH.....	759
Ochilova Nargiza Akramovna	
“AGLOMERATSIYA IQTISODIYOTLARI VA KICHIK SANOAT ZONALARI SAMARADORLIGI”	762
Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
“A NEW METHODOLOGY FOR DEVELOPING GREEN TOURISM EXPORTS USING DIGITAL TECHNOLOGIES”	766
Kurbonova Malika Ahmad qizi	
O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘IDA SUG‘ORISH TIZIMLARIDAN FOYDALANISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH.....	770
Xolliyev Sh.B.	
EKOLOGIK TURIZM RIVOJIDA UY MEHMONXONALAR TIZIMI VA YASHIL MEHMONXONA KONSEPSIYASINING IQTISODIY ASOSLARI	773
Abdushukurova Sevinch, Sh.Xolliyev	
ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ПОСТРОЕНИИ СИЛЬНОГО БРЕНДА	777
Феруза Темирова Сагдуллаевна	
SMALL BUSINESS FINANCIAL STABILITY: REGIONAL ANALYSIS	781
Muxayyo Dustova	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ В ТУРИЗМЕ: КАК МАРКЕТИНГ ПОМОГАЕТ НАЙТИ БАЛАНС МЕЖДУ ПРИБЫЛЬЮ И СПРОСОМ.....	786
Наргиза Муродова Уткировна	
OLIY TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	791
Shapopov Temirmalik Rustam o‘g‘li	
THE IMPACT OF LOGISTICS AND TRANSPORT INFRASTRUCTURE ON FRUIT AND VEGETABLE EXPORT GROWTH	796
Muxayyo Dustova	
МОБИЛЬНЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ И ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ КАК МАРКЕТИНГОВЫЕ КАНАЛЫ В ТУРИЗМЕ.....	800
Наргиза Муродова Уткировна	



EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA EKOPOLISIYA ORGANINING HUQUQIY VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	804
Nosirov Ilhom Abbasovich, Ochilov Akram Odilovich	
BRENDLASHNING MILLIY DARAJADAGI TALQINI VA TURIZMGA TA'SIRI	810
Sunnatova Sevara Sirojiddin qizi, Ro'ziboyeva Kamola Jahongir qizi, Qosimov Jahongir Ro'ziboyevich	
"QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI"	815
Xusainov Oybek Djabbarovich	



BRENDLASHNING MILLIY DARAJADAGI TALQINI VA TURIZMGA TA'SIRI

Sunnatova Sevara Sirojiddin qizi

magistrant, Qarshi davlat universiteti

Ro'ziboyeva Kamola Jahongir qizi

TATU talabasi

Ilmiy rahbar:

Qosimov Jahongir Ro'ziboyevich

Qarshi davlat universiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy globallashuv sharoitida milliy brend tushunchasining nazariy asoslari, uning shakllanish omillari hamda xalqaro ilmiy adabiyotlarda berilgan ta'riflari tahlil qilinadi. Maqolada gastronomik turizmning milliy imijni shakllantirishdagi o'rni o'rganilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi asosida muvaffaqiyatli milliy brend siyosatining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: imij, milliy brend, hududiy resurslar, logotip, zamonaviy sayyohlar, turizm, investitsiya, geosiyosat, gastronomik turizm.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the concept of a national brand in the context of modern globalization, the factors influencing its formation, and definitions provided in international academic literature. The role of gastronomic tourism in shaping national image is examined. The article also highlights the distinctive features of successful national branding policies based on the experience of foreign countries.

Key words: image, national brand, territorial resources, logo, modern tourists, tourism, investment, geopolitics, gastronomic tourism.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы понятия национального бренда в условиях современной глобализации, факторы его формирования, а также определения, представленные в международной научной литературе. Изучается роль гастрономического туризма в формировании национального имиджа. Кроме того, рассматриваются особенности успешной политики национального брендинга на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: имидж, национальный бренд, территориальные ресурсы, логотип, современные туристы, туризм, инвестиции, геополитика, гастрономический туризм.

KIRISH

Bugungi globallashuv dunyosida davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohalardagi aloqalar yanada chuqurlashmoqda. Bunday sharoitda har bir mamlakat o'zining ijobiy imijini yaratish, xalqaro maydonda tanilish va raqobatbardosh bo'lish maqsadida o'z milliy brendini shakllantirishga intilmoqda. Milliy brend — bu mamlakatning tashqi dunyodagi qiyofasi, uning madaniyati, qadriyatlari, turizmi, mahsulotlari va umuman, xalqaro obro'sining jamlanmasidir. Globallashuv iqtisodiy va kommunikatsion chegara to'siqlarini yo'q qilgan bir paytda, davlatlar o'rtasidagi raqobat faqat mahsulot va xizmatlar sohasida emas, balki brendlar orqali ham yuzaga kelmoqda. Shu sababli, zamonaviy milliy brend konsepsiyasi nafaqat marketing strategiyasi sifatida, balki davlat imijini mustahkamlovchi geosiyosiy va madaniy vosita sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Bunda xorijiy investorlar, sayyohlar va iste'molchilarning e'tiborini tortishda kuchli milliy brend hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda turizm sohasi milliy brendni shakllantirishda eng samarali yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Xususan, gastronomik turizm orqali mahalliy madaniyat, an'analar va milliy o'ziga xoslik xorijiy mehmonlarga taqdim etiladi. Shu nuqtayi nazardan, milliy brend va turizmning o'zaro aloqadorligi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biriga aylangan. Turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha, balki mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Turizm orqali xorijiy mehmonlar mamlakatning madaniyati, tarixi, an'analari, urf-odatlar va mehmondo'stligini



bevosita kuzatish, tahlil qilish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Yurtimizda milliy brendni rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, turizmning barcha yo'nalishlarida zamonaviy infratuzilmani shakllantirish, xorijiy sayyohlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratish, sohada ilg'or texnologiyalar va raqamli yechimlardan keng foydalanish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Shuningdek, ekologik barqarorlik tamoyillariga rioya etgan holda turistik xizmatlarni taklif etish hamda mavjud milliy brendlarni takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, milliylikimizni aks ettiruvchi mahsulotlar, an'anaviy hunarmandchilik buyumlari, milliy taomlar va madaniy qadriyatlarni xalqaro miqyosda tanitish va ularni raqobatbardosh brend darajasiga yetkazish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

Biz yuqorida aytib o'tgan istiqbolli rejalarni amalga oshirish uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan bir qator zaruriy qaror va strategiyalar ishlab chiqilib, unda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida turizm sohasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shuningdek, 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-sonli qarorda kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmonining 58-maqсадida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish vazifasi qo'yilgan. Hozirda strategiyada belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va to'liq ravishda amalga oshirish maqsadida turizmni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — milliy brend tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish, uning turizm, xususan, gastronomik turizm bilan aloqadorligini tahlil qilish va O'zbekiston misolida milliy brendni shakllantirishda turizmning strategik rolini aniqlashdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Brend (ing. brand) so'zi dastlab mahsulot yoki xizmatni boshqa raqobatchilardan ajratib turuvchi nom, belgi, dizayn yoki simvol sifatida tushunilgan. U marketing nazariyasida mijozlar ongida muayyan mahsulot yoki xizmatga nisbatan paydo bo'ladigan tuyg'u, ishonch va obrazlar yig'indisi sifatida izohlanadi. Brend bu — nafaqat tashqi ko'rinish, balki mijoz yoki iste'molchi ongida shakllangan kompleks tushunchadir. U kompaniya yoki mahsulot haqidagi umumiy tasavvur, tajriba va emotsiyalarning yig'indisidir.

Milliy brend esa bu tushunchaning kengaytirilgan shakli bo'lib, u butun mamlakatga nisbatan shakllantirilgan ijobiy imij, ishonch va qiziqishlar majmuasini anglatadi. Brend nafaqat tashqi ifoda (logotip, shior), balki mijozlar yoki tashrif buyuruvchilar (turistlar) ongida vujudga kelgan hissiy obrazdir. Bu obraz esa, ayniqsa milliy darajada, xalqning madaniyati, qadriyatlari, xizmat sifati, tarixiy obidalar, tabiiy manzaralar, milliy taomlar va boshqa omillar orqali shakllanadi. Shu bois, brend yaratishda asosiy maqsad — insonlar ongida barqaror, ijobiy va ishonchli taassurot qoldirish bo'lib, milliy brendni yaratishda bu yondashuv yanada kengroq, tizimli va xalqaro miqyosda olib borilishi talab etiladi¹.

Milliy brend tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlarda talqin qilingan bo'lib, bu mazmunli farqlar milliy brend konsepsiyasining ko'p qirrali va murakkab ijtimoiy hodisa ekanini ko'rsatadi. Simon Anholt (1996) ushbu atamani ilk bor fanga kiritib, uni mamlakatning xalqaro maydondagi qiyofasi sifatida talqin qiladi. Uning "raqobatbardosh identitet" (competitive identity) konsepsiyasi shundan dalolat beradiki, milliy brend shunchaki tashqi reklama emas, balki mamlakat siyosati, iqtisodiy modeli, madaniy qadriyatlari va fuqarolik jamiyatining holati bilan uzviy bog'liqdir².

Dinnie Anholt (2008) yondashuvini rivojlantirib, milliy brendni kompleks strategiyalar yig'indisi deb baholaydi. U brendni yaratishda nafaqat siyosat, balki madaniyat, sport, media va turizmning o'rnini alohida ajratadi. Bu yondashuv milliy brend shakllanishi ko'p tarmoqli jarayon ekanini tasdiqlaydi. Ayniqsa, turizm sohasining milliy brenddagi roli, ko'plab tadqiqotlarda asosiy omil sifatida e'tirof etilgan³. Masalan, Kotler, Haider va Gertner (1993) milliy brendni shakllantirishda sayyohlarning mamlakat haqidagi dastlabki taassurotini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Ularga ko'ra, turizm brend obrazini shakllantirishda strategik vosita hisoblanadi. Hudson va Ritchie (2006)⁴ esa yirik xalqaro sport tadbirlari — masalan, Olimpiada yoki Jahon chempionatlarining brend qiyofaga bo'lgan ta'sirini tahlil qiladi. Ularning tadqiqoti brendni shakllantirishda tajriba va emotsional hissiyotlarning ahamiyatini ochib beradi⁵.

1 <https://uz.wikipedia.org/wiki/Brend>

2 Dinnie, Keith. Nation Branding. Нидерланды, Taylor & Francis, 2010. (15-65-96-betlar)

3 Dinnie, Keith. Nation Branding: Concepts, Issues, Practice. Великобритания, Taylor & Francis, 2015.

4 Hudson, Simon, and Hudson, Louise. Customer Service for Hospitality and Tourism. Великобритания, Goodfellow Publishers, Limited, 2013.

5 <https://www.everand.com/book/225916612/Marketing-Places>



So'nggi yillarda gastronomik turizm ham milliy brend nazariyasida muhim o'rin egallay boshladi. Hjalager va Richards (2002) milliy oshxonani turistlar uchun madaniy tajriba deb e'tirof etadi. Ularning yondashuvi taomlar orqali milliy o'zlikni xalqaro maydonda targ'ib qilish imkoniyatini asoslaydi.⁶ Ellis va boshqalar (2018) esa zamonaviy sayyohlar aynan an'anaviy taomlar orqali madaniyatni his qilishga intilishini, bu esa brend yaratishda yangi yo'nalish – gastronomik identitet tushunchasini ilgari surayotganini ko'rsatadi.⁷

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy brend – bu oddiy logotip yoki reklama kampaniyasi emas, balki madaniy, iqtisodiy, siyosiy va turistik elementlarni birlashtiruvchi murakkab strategik tizimdir. Turizm esa bu tizimda vizual, hissiy va tajribaviy ta'sir orqali muhim o'rin egallaydi. Xususan, gastronomik turizm so'nggi yillarda milliy identitetni ko'rgazmali va jozibali tarzda namoyon qilish vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada milliy brend tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, uning shakllanish omillari va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish orqali milliy brend va turizm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda yoritish maqsad qilingan. Shu bois tadqiqotning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi:

1. Nazariy tahlil usuli: Milliy brendga oid ilmiy qarashlar, G. Hankinson, S. Anholt, M. Olins, F. Kotler kabi olimlarning milliy imij va brend nazariyasiga oid asarlari tahlil qilindi. Ularning yondashuvlari asosida milliy brendni tarkibiy elementlarga ajratish, milliy qadriyatlar va tarixiy meros bilan bog'liqligi o'rganildi.

2. Tarixiy yondashuv: Milliy brend tushunchasining tarixiy shakllanishi, XIX–XX-asrlardagi davlat imiji bilan bog'liq konsepsiyalar, mustaqillikdan keyingi O'zbekiston brendining shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich davrlar kesimida ko'rib chiqildi.

3. Me'yoriy-huquqiy tahlil: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmon, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi", shuningdek 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-son qaror, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Milliy brend va turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi" asosiy me'yoriy manbalar sifatida tahlil qilindi.

4. Tahliliy-solishtirma metod: Turli davlatlarning milliy brend strategiyalari bilan O'zbekiston tajribasi qiyosiy va statistik tahlil qilinib, umumiy va farqli jihatlar aniqlanishi ko'zda tutilgan.

TAHLILVA NATIJALAR

Bizga ma'lumki, mustaqillik yillaridan oldin O'zbekistonning milliy brendi mavjud bo'lmagan. Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan davrda O'zbekiston o'zining alohida brendini yaratish imkoniyatiga ega emas edi. O'zbekistonning xalqaro maydondagi imiji asosan Sovet Ittifoqi orqali shakllangan bo'lib, u mamlakatning madaniy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarini to'liq aks ettirmagan. Barcha markaziy iqtisodiy va siyosiy qarorlar Moskva tomonidan qabul qilinganligi sababli O'zbekiston mustaqil imijga ega bo'la olmagan. Natijada milliy brendni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan madaniy diplomatiya, xalqaro aloqalar va mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish imkoniyati mavjud bo'lmagan.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston o'z milliy brendini yaratish jarayoniga kirishdi. Bu jarayon davlatning o'ziga xos iqtisodiy va madaniy resurslarini, milliy qadriyatlarini, tarixiy merosini xalqaro miqyosda targ'ib etishdan iborat bo'ldi. O'zbekistonning milliy brend yaratishga bo'lgan ehtiyoji mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ortib bordi, chunki davlat o'zining xalqaro obro'sini oshirish, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishdagi yutuqlarini namoyish etishga intildi. Milliy brendning shakllanishi nafaqat mamlakatning tashqi qiyofasini, balki ichki ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ham tubdan o'zgarishini talab etdi.

1990-yillardan boshlab O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlantirishda turizm, investitsiya, sport va madaniyat sohalarda faol choralar ko'rilgan. O'zbekistonning xalqaro maydondagi brendi asta-sekin shakllanib bordi.

1991-yilda, ya'ni O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda, mamlakatning milliy brendi xalqaro miqyosda sezilarli darajada ko'rinishga ega emas edi. Sovet Ittifoqidan meros qolgan iqtisodiy va siyosiy tizim mamlakatning mustahkam xalqaro imijini yaratishga to'sqinlik qilgan. Biroq mustaqillikdan keyin milliy brendni shakllantirish jarayoni boshlandi va tashqi siyosiy hamda iqtisodiy aloqalar kengaya boshladi.

2000-yillarga kelib O'zbekistonning xalqaro maydondagi imiji asta-sekin yaxshilandi. Bu davrda sanoat va agrar sohalarda o'zgarishlar ro'y berdi, turizm, madaniyat va sport yo'nalishlarida xalqaro maydonga chiqish

6 https://www.researchgate.net/publication/322925141_Tourism_and_Gastronomy

7 Ellis, A., Park, E., Kim, S., & Yeoman, I. (2018). *What is food tourism?*. Tourism Management



kuchaydi. 2005-yilgi Andijon voqealari milliy imijga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, keyingi yillarda imijni yaxshilash bo'yicha islohotlar davom ettirildi.

2016-yildan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilgan tashqi siyosatdagi ochiqlik, iqtisodiy liberallashtirish va qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash siyosati O'zbekistonning xalqaro brendini sezilarli darajada mustahkamladi. Turizmning jadal rivojlanishi, viza rejimining yengillashuvi, "Uzbekistan" brendining jahon bozorida keng targ'ib qilinishi mamlakatning global tanilishiga xizmat qildi.

O'zbekistonning "Nation Brands" reytingidagi o'rni ham dinamik o'sishni ko'rsatadi:

- 2019-yilda — 70-o'rin,
- 2020-yilda — 61-o'rin,
- 2025-yilda — 55-o'rin.

Bu ko'rsatkichlar mamlakatning so'nggi yillarda olib borayotgan tizimli islohotlari va global maydondagi faolligi natijasidir.

1-jadval. O'zbekistonning so'nggi 5 yillikdagi (2020–2025) xalqaro reytingdagi o'rni va brend qiymatining o'zgarishi statistikasi

Yillar	Milliy brend reytingi	O'zbekistonning global reytingi	Qiziqish o'sishi foizda
2021-2020	62-o'rin	61-o'rin	-
2022-2021	62-o'rin	62-o'rin	+9
2023-2022	57-o'rin	62-o'rin	+2
2024-2023	57-o'rin	57-o'rin	+2
2025-2024	55-o'rin	55-o'rin	+2 ⁸

O'zbekistonning milliy brendi ko'proq turizm, madaniyat, tarix va iqtisodiy islohotlar orqali kuchaymoqda. Mamlakat turizm sohasida yirik islohotlar amalga oshirib, xorijiy turistlar sonini oshirishga erishdi. O'zbekiston 2020-yilda turizm sohasida 2,7 million xorijiy turistni qabul qildi, bu esa mamlakat brendining xalqaro maydondagi ahamiyatini ko'rsatadi. Yurtimizda 2020-yildan boshlab turizmni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu O'zbekistonning milliy brendini yangi bosqichga ko'tarish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2023-yilda O'zbekiston turizm sohasida sezilarli o'sishga erishdi. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil davomida mamlakatga 6,6 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, bu 2022-yilga nisbatan 26,6 foizga ko'p. Sayyohlarning kelgan mamlakatlari bo'yicha taqsimoti ham sezilarli dinamikani ko'rsatadi.

Xususan, qo'shni davlatlardan o'tgan yili jami 4 364,8 ming nafar turist tashrif buyurdi va bu 2022-yilga nisbatan 283 foizga ko'pdir. Shuningdek, qolgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlaridan 606,4 ming nafar (2022-yilga nisbatan 291 foizga ko'p), uzoq xorij mamlakatlaridan esa 261,6 ming nafar (2022-yilga nisbatan 198 foizga ortiq) turist yurtimizga tashrif buyurdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2023-yilda mamlakatimizga kelgan turistlarning 49,6 foizini 31 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan shaxslar tashkil qilgan. Shuningdek, xorijlik turistlarning 723,3 ming nafari — 18 yoshgacha bo'lganlar, 846,5 ming nafari — 19 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar, 1 069,6 ming nafari esa 50 yoshdan oshgan shaxslardir⁹.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, milliy brend nafaqat mamlakatning tashqi qiyofasini belgilovchi vosita, balki uning iqtisodiy, madaniy va turistik salohiyatini yuksaltiruvchi muhim strategik omil ekanini ko'rish mumkin. Ayniqsa, turizm sohasi, xususan gastronomik turizm milliy brendni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. An'anaviy taomlar, hududiy o'ziga xosliklar va milliy madaniyat xorijiy sayyohlar orqali dunyoga namoyon qilinib, O'zbekistonning ijobiy xalqaro imijini yaratishga xizmat qiladi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy brend siyosatini samarali olib borish uchun davlat tomonidan huquqiy-me'yoriy asoslar, infratuzilma rivoji va xalqaro targ'ibot ishlariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O'tgan yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatning global reytinglardagi o'rni sezilarli darajada yaxshilangan, shuningdek, xorijiy sayyohlar soni ortib bormoqda. Bu esa milliy brend siyosatining amaliy samarasidir.

Kelgusida milliy brendni yanada kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni jadallashtirish maqsadga muvofiq:

⁸ <https://brandirectory.com/reports/nation-brands>

⁹ <https://uzbekistan.travel/uz/sayyohlarning-kelishi>



1. Gastronomik turizmga ixtisoslashgan hududiy brendlar yaratish;
 2. Milliy taomlarni xalqaro darajada sertifikatlashtirish va targ'ib etish;
 3. Xorijda O'zbekistonning turistik salohiyatini aks ettiruvchi doimiy ko'rgazmalar va festival dasturlarini tashkil etish;
 4. Mahalliy aholining brend siyosatidagi ishtirokini oshirish, ayniqsa yoshlar va tadbirkorlarni jalb etish.
- Shunday qilib, turizm, ayniqsa gastronomik yo'nalish, O'zbekistonning barqaror milliy brendini yaratishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan siyosatlar mamlakatning xalqaro miqyosda tan olinishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI

1. Aliyeva M.T., Jamolov J.J. Turistik mahsulotlar marketingi. Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019.
2. Kaxarov Jasur Abulkosimovich. O'zbekistonda gastronomik turizmni tashkil qilish va rivojlantirish yo'llari. Samarqand, 2024.
3. Sultonov Beknazar Abduhalilovich. O'zbekistonda gastronomik turizmni rivojlantirish masalalari. Samarqand, 2024.
4. Dinnie, Keith. Nation Branding. Нидерланды: Taylor & Francis, 2010. (15, 65, 96-betlar).
5. Dinnie, Keith. Nation Branding: Concepts, Issues, Practice. Великобритания: Taylor & Francis, 2015.
6. Ellis, A., Park, E., Kim, S., & Yeoman, I. (2018). What is food tourism? Tourism Management.
7. Hudson, Simon, & Hudson, Louise. Customer Service for Hospitality and Tourism. Великобритания: Goodfellow Publishers Limited, 2013.
8. https://www.researchgate.net/publication/322925141_Tourism_and_Gastronomy
9. <http://lex.uz/ru/docs/-6600413> — "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Brend>
11. <https://www.everand.com/book/225916612/Marketing-Places>
12. <https://brandirectory.com/reports/nation-brands>
13. <https://uzbekistan.travel/uz/sayyohlarning-kelishi>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>